ISSN 2181-3035

RESPUBLIKA ILMIY KONFERENSIYASI

10.06.2026

# ILM-FAN MUAMMOLARI TADQIQOTCHILAR TALQINIDA

ILM | TA'LIM | INNOVATSIYA | MAKTAB
YANGI O'ZBEKISTON | BUYUK KELAJAK
UCHINCHI RENESSANS



ANIQ FANLAR | TABIIY FANLAR | TIBBIYOT FANLARI | TEXNIKA FANLARI | IJTIMOIY-GUMANITAR FANLAR | PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA

**KONFERENSIYA QATNASHCHILARI:**

- TALABALAR
- MAGISTRANTLAR
- DOKTORANTLAR
- YOSH OLIMLAR
- O'QITUVCHILAR

**KONFERENSIYA YO'NALISHLARI:**

- Aniq fanlar
- Tabiiy fanlar
- Tibbiyot fanlari
- Texnika fanlari
- Ijtimoiy-gumanitar fanlar
- San'at va madaniyat fanlari
- Jismoniy tarbiya va sport
- Filologiya fanlari
- Pedagogika fanlari
- Psixologiya fanlari

**UCHINCHI RENESSANS**

doi | zenodo | CYBERLENINKA

OPEN ACCESS

@TALQINVATADQIQOTLAR

Google Scholar





TALQINVATADQIQOTLAR.UZ    +99891-152-93-14

*Ushbu ilmiy konferensiya "Ilm-fan va ilmiy faoliyat to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ilm-fan va ta'lim sohasini rivojlantirishga qaratilgan tegishli qarorlarida ko'zda tutilgan vazifalar ijrosini ta'minlash, talabalar, magistrantlar, doktarantlar va yosh olimlarning ilmiy tadqiqot natijalarini keng yoritish maqsadida "Talqin va tadqiqotlar" ilmiy-uslubiy jurnali tahririyati (O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikasiyalarni rivojlantirish agentligining 1540-sonli Guvohnoma, ISSN 2181-3035, talqinvatadqiqotlar.uz veb-sayti) tomonidan tashkil etib boriladi.*

# "Ilm-fan muammolari tadqiqotchilar talqinida"

mavzusidagi respublika ilmiy konferensiyasi

# MATERIALLARI TO'PLAMI

**10-iyun, 2026-yil**

# "Ilm-fan muammolari tadqiqotchilar talqinida" mavzusidagi respublika ilmiy konferensiyasi tahrir kengashi:

**Abdukarimov Jamoliddin Ahmadaliyevich**
*Xo'jand davlat universiteti dotsenti (Tojikiston)*
**Djo'rayev Mabruk Ma'murjon o'g'li**
*O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi*
**Masharipova Gularam Kamilovna**
Falsafa fanlari doktori, professor
Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti
**Qozoqov Tohirjon Qodiraliyevich**
*Namangan davlat universiteti, tarix fanlari nomzodi, dotsent*
**Zokirov Sanjar Ikromjon o'g'li**
*Farg'ona politexnika institutining "Intellektual muhandiislik tizimlari" kafedrasi katta o'qituvchisi, fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori*
**Idrisov Xusanjon Abdujabborovich**
*Farg'ona davlat universiteti mevachilik va sabzavotchilik kafedrasi mudiri q.x.f.f.d (PhD)*
**Berdieva Lobar Norqobulovna**
*Qashqadaryo viloyat Pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish Milliy Markazi "Pedagogika, psixologiya va ta'lim texnologiyalari" kafedrasi o'qituvchisi*
**Xamraqulov Serobjon Soliyevich**
*Qo'qon davlat pedagogika instituti, PhD*
**Baymenova Kamshat Saparbayevna**
*Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti*
**Bazarov Otabek Odilovich**
*Qo'qon davlat pedagogika instituti, PhD*
**G'ulomova Nargiza Sa'dullayevna**
*Navoiy VXTXQTMOHM Tillarni o'qitish metodikasi katta o'qituvchisi*
**Djumaniyozova Enajon Kutimovna**
*Toshkent arxitektura qurilish instituti xorijiy tillar kafedrasi katta o'qituvchisi*
**Abdullayev Ravshanjon Inomjon o'g'li**
*Qo'qon universiteti katta o'qituvchisi*

# XV– XVI ASR BOSHLARIDA XORAZMDA KECHGAN SIYOSIY JARAYONLAR

**Ibragimova Gulzoda Farxadovna**
Urganch Innovation Universiteti tarix fani o'qituvchisi

**Maqolaning qisqacha mazmuni:** XV– XVI asr boshlarida Xorazmda kechgan siyosiy jarayonlar masalasi tarixiy manbalarda juda yaxshi aks etgan. Ammo, bu o`rinda shuni alohida ta'kidlash lozimki, bu manbalardagi ma'lumotlar bir-biriga qarama qarshi hamda bir manbada mavjud ma'lumotlar ikkinchi bir manbada mavjud emas. Shu jihatdan olganda mazkur maqolada Xorazm vohasida XV– XVI asr boshlarida kechgan siyosiy jarayonlar masalasi manbalarni qiyosiy tahlil asosida yoritishga harakat qilingan.

**Kalit so`zlar:** Temuriylar, Abdurazzoq Samarqandiy, Fosih al-Xavofiy, Idiku, Musaka, Shohruh Mirzo, Abulxayrxon, Abu Said, Husayn Boyqaro, Shayboniyxon.

**Аннотация:** Вопрос о политических процессах, происходивших в Хорезме в XV – начале XVI веков, хорошо отражен в исторических источниках. Однако следует отметить, что информация в этих источниках противоречит друг другу, и информация, содержащаяся в одном источнике, отсутствует в другом. В связи с этим данная статья пытается пролить свет на вопрос о политических процессах, происходивших в Хорезмском оазисе в начале XV – начале XVI веков, на основе сравнительного анализа источников.

**Ключевые слова:** Тимуриды, Абдураццок Самарканди, Фасих аль-Хавофи, Идику, Мусака, Шахрух Мирза, Абулхайрхан, Абу Саид, Хусейн Байкара, Шайбанихан.

**Annotation:** The issue of political processes that took place in Khorezm in the 15th-early 16th centuries is very well reflected in historical sources. However, it should be noted that the information in these sources contradicts each other, and the information available in one source is not available in another. In this regard, this article attempts to shed light on the issue of political processes that took place in the

Khorezm oasis in the early 15th-early 16th centuries based on a comparative analysis of the sources.

**Keywords:** Timurids, Abdurazzoq Samarkandi, Fasih al-Khavofi, Idiku, Musaka, Shahrukh Mirza, Abulkhairkhan, Abu Said, Husayn Baykara, Shaybanikhan.

XV asrning birinchi yarmida Xorazmda boshqaruv tizimiga qisman daxldor kechgan siyosiy voqealar temuriylar davri yozma manbalaridan Abdurazzoq Samarqandiyning "Matlai sa'dayn" asarida qisqacha sharhlab o'tilgan.

Unda yozilishicha, Musaka hokimligi yillarida Xorazmda yuz bergan voqealardan biri, qarototorlarning ko'chishi bilan bog'liq. Sohibqiron Amir Temur yetti yillik yurishi chog'ida qarototorlarni Kichik Osiyodan Movarounnahr tomonlarga ko'chirgan edi. Amir Temur vafotidan so'ng, Xalil Sulton hukmdorligida qarototorlar bosh ko'tarib o'z yurtlariga qaytishga azm qiladilar. Ular dastlab Xorzmga o'tib, amir Musaka bilan qattiq jang qiladilar va u yerdan Xuroson tomonga yo'l oladilar [1, B.286].

Keyingi voqea Oltin O'rdaning hukmdori SHodixonning lashkarboshisi (amir ul-umaro) amir Idiku Dashti Qipchoqdan Xorazmga bostirib kirganidir. Tadqiqotlarda Idiku kelib chiqishi mang'it qabilasidan bo'lib, 1396 – 1411 yillarda Oltin O'rda xonligida uning va qarindosh – urug'larining obro'-e'tibori va siyosiy ta'siri juda yuqori bo'lganligi qayd etilgan [3, B.37].

Xorazm Temuriylardan norozi kuchlarning ham panoh joyiga aylandi. Masalan, 1406 yilning bahorida Samarqandda bir guruh iroqliklar Xalil Sultondan yuz o'girib o'z yurtlariga qaytishga azm qiladilar. Ular Xorazmga yetib kelib, u yerda Pirpodshohni o'zlariga boshliq saylab, Mozandaron tomon yo'l oladilar.

Xorazm yetti yil (1406 - 1413) Oltin O'rda hukmi doirasida bo'ldi va shu vaqt davomida Xorazmni dastlab amir Idiku tayinlagan hokimlar amir Anko va Bag'alja, so'ngra amir Idikuning o'zi, u Dashti Qipchoqqa qaytgach o'g'li Muborakshoh boshqardilar [1, B.235].

Xorazmda amir Idikuning o’g’li Muborakshoh hokim bo’lib turganida Temuriylar hukmdori Mirzo SHohrux bu viloyatni egallash uchun lashkar jo’natadi va Xorazm 1413 yil boshlarida Mirzo SHohrux hukmiga o’tadi va u mazkur viloyatni amir SHohmalikka butunlay suyurg’ol qiladi. Amir SHohmalik to vafotiga (vafoti 1426) Xorazmni boshqargan bo`lsa uning vafotidan so`ng o’g’li Ibrohim Sulton Xorazmni boshqargan [1, B.359; 478].

Xorazmning boshqaruv tizimiga daxldor keyingi voqea Abulxayrxonning yurishi bilan bog’liq. Dashti Qipchoqda uzoq muddatli o’zaro qabilaviy urushlardan so’ng, ko’pchilik qabilalarning xayrixohligi bilan 1428 yili Abulxayrxon xonlik taxtini egalladi va shu asosda Ko’chmanchi o’zbeklar davlati tashkil topdi, poytaxti G’arbiy Sibirdagi Tura shahri edi. Mazkur shahar to 1446 yilgacha, ya’ni poytaxt Sirdaryoning quyi havzasiga Sig’noq shahriga ko’chirilgungacha, davlat poytaxti mavqeini saqladi. Abulxayrxon tez orada davlatning harbiy salohiyatini oshirib, uning hududini ancha kengaytirishga muvaffaq bo’ldi va Xorazmga ham chopqinlar qildi. Abdurazzoq Samarqandiy “Matlai sa’dayn” asarida Dashti Qipchoq tomondan ikki marta chopqin bo’lgani haqida yozadi [1, B.478].

“Tarixi Abulxayrxoniy” asarida esa Abulxayrxonning faqat bir marta Xorazmga lashkar tortgani haqida yozilgan, lekin yili qayd etilmagan [3, B.41-42].

Undan tashqari, “Tarixi Abulxayrxoniy” asaridagi ma’lumotlar hamda Mirzo SHohrux saltanati davrida yozilgan solnomalardan yana biri, Fasih Ahmad Xavofiyning “Mujmali Fasihiy” asarida yozilganlar ham ushbu fikrni tasdiqlaydi. Unda Abulxayrxon Xorazmga faqat bir marta yurish qilgan deyiladi va bu haqda 839 (1435 – 1436) yil voqealari bayonida keltirilgan [4, B.213].

Tadqiqotlarda Abulxayrxon Xorazmga ikki marta yurish qilgani (1433 va 1435) aytilgan [3, B.99].

XV asrning 40-yillarida Abulxayrxon o’z davlati chegaralarini janub tomonga kengaytirdi va Sirdaryoning quyi havzasidagi Sig’noq shahri 1446–1468 yillar davomida ushbu davlatning poytaxti edi. U 1446 yili Dashti Qipchoqda ko’chmanchi o’zbeklarning katta harbiy qudratga ega xonlaridan Mustafoxonni jangda mag’lub qildi. Mustafoxon kelib chiqishi jihatdan SHayboniy sulolasiga mansub edi. Ishim

daryosi va uning irmog'i Otbosarning havzasida yashagan. U dastlab 1428 yili Abulxayrxon bilan birlashgan bo'lsada, biroq keyinchalik unga qarshi chiqdi va jangda mag'lubiyatga uchragach, o'z elati bilan Mangqishloq tomonga qochib ketdi [3, B.99].

Mazkur voqea XV asrning 40- yillarida Dashti Qipchoqdan ko'chmanchi o'zbek qabilalari katta bir guruhining Kaspiy bo'yi tomonlarga ko'chib borishiga sabab bo'ldi. Abdurazzoq Samarqandiy ularni qozoq- o'zbeklar deydi. Ular Gurgon va Astrobod viloyatlariga chopqinlar qilganlar Mirzo SHohrux bunga qarshi u yerda muntazam qo'shin saqlashga majbur bo'lgan [1, B.210].

XV asrning o'rtalarida Mustafoxon Xorazmning janubi-g'arbiy qismini bosib oldi va uning faoliyati tufayli Xorazmning boshqaruv tizimida bir qancha o'zgarishlar yuz berdi. U Xorazmning poytaxti Urganchdan 60 km g'arbda Vazir shahrini barpo etdi. Urganchni bosib olib, aholisining bir qismini Vazirga ko'chirdi. Vazir shahrida 1558 yili ingliz sayyohi Antoniy Jenkinson bo'lgan va bu haqda qisqa axborot qoldirgan. Sayyoh yozganlariga ko'ra, bu joy XV1 asr o'rtalarida ham obod qo'rg'on bo'lgan. Mustafoxon Xorazmda 1460-1461 yilgacha hukmronlik qildi, ya'ni Xorazmning g'arbiy qismi bir muddat Dashti Qipchoq ko'chmanchi o'zbeklari tasarrufiga o'tdi [2, B.196].

So'ngra bu yerda hokimiyatni qo'ng'irot sufiylari o'z qo'liga oldi. Vazir shahrini Mustafoxon xizmatida bo'lgan amirlardan Muhammad sufining o'g'li Usmon qo'ng'irot egalladi. Bu sufiylar sulolasining oradan deyarli bir asr o'tgandan keyin ikkinchi marta Xorazmda hukmronlik taxtiga kelishi edi.

Bu joylar Sulton Abusaidga qarshi harakatlar qilgan boshqa bir temuriy shahzoda Sulton Husayn mirzo, ya'ni Husayn Boyqaro (1469 - 1506) uchun ham qulay qarorgoh bo'lgan va uning dastlabki faoliyati Xorazmning boshqaruv tizimi bilan ham bog'liq holda kechgan.

Sulton Husayn temuriylar taxti uchun kurashni Sulton Abusaid hukmronligi yillaridayoq boshlagan edi va Sulton Husayn 1459 yil kuzida Sulton Abusaidga bo'ysinishdan bosh tovlab, Mozandaronda hokimiyat uchun kurashga otlanadi. Biroq birinchi to'qnashuvdayoq mag'lubiyatga uchrab, Kaspiy dengizining Ag'richa

qo'ltig'i tomon chekinadi va u yerdan 1460 yil boshida Xorazm tomonga ketishga majbur bo'ladi [1, B.496-497].

Bu voqeadan so'ng Sulton Husayn Xorazmdan o'ziga ittifoqchilar qidiradi, Mustafoxon va qo'ng'irot sufilari bilan muzokaraga kirishadi. Dastlab Vazir shahrini egallab turgan Mustafoxonni Sulton Abusaidga qarshi birlashib harakat qilishga undaydi. Qo'ng'irot sufilari avlodidan Usmon qo'ng'irot Vazir shahrini egallab, Mustafoxon hokimiyatdan ketgach, Sulton Husayn ikki marta Vazir shahriga bostirib kelib, ikkinchisida shaharni egallaydi. Sulton Husayn 1461 yilgi chiqishida Mozandaronni olib, Hirot shahrini qamal qilishga jur'at etdi. U Xorazmda o'z mavqeini mustahkamlashga kirishdi va 1462 yili Urganch va Xivani egallab, temuriylarning Xorazmdagi hokimi Qutlug' Darveshni hokimiyatdan chetlatdi, Urganchni o'zining bosh qarorgohiga aylantirdi [1, B.513-520; 3, B.116].

"Matlai sa'dayn"da 1463 yil boshlarida Sulton Husayn Xorazm tomondan chiqib Nisoga chopqin yasab qaytib ketgani, 1464 yili Yozar, Naso, Abivard, Mashhad, Nishopur, Sabzavor, Turshiz, Tun viloyatlariga kirib kelib, Sulton Abusaid yuborgan lashkarni jangda mag'lub qilib qaytib ketgani qayd etilgan. Ammo, tez orada Xorazmda yana Abu Saidning vakili Nursaidbek boshqara boshlaydi [1, B.537; 548-550; 553; 3, B.116-117]. Sulton Husayn qulay fursatni kutib, 1468 yil kuzida hujum qilib, Xorazmdan o'tib, Naso va Abivardgacha bostirib kelgan [1, B.574; 601].

Bo'lib o'tgan voqealar XV asrning 60-yillarida Xorazmning boshqaruv tizimida Dashti Qipchoq o'zbeklari, mahalliy qo'ng'irot sufilari vakillari va temuriylarning ishtiroki bo'lganligini anglatadi. Bu davrda Dashti Qipchoq ko'chmanchi o'zbeklarining ham Xorazm boshqaruv tizimiga daxldorligi bor va bu SHaybonixonning yurishlari bilan bog'liq. SHaybonixon 1480 yili Xorazmning g'arbiy qismidagi bir nechta shaharlarni (Tirsak, Bulumsoz, Vazir, Adoq) egalladi va ma'lum vaqt shu viloyatda bo'ldi. So'ngra u Sulton Ahmad mirzoning taklifi bilan Movarounnahrga qaytdi va uning 1487 yili Samarqanddan Toshkentga yurishida qatnashgani ma'lum; ikkinchi marta u Movarounnahrni Temuriylardan tortib olgach, Xorazmga yurish qildi va 1505 yili Xorazm uzil - kesil SHayboniylarning hukmiga o'tdi.

**Foydalanilgan manbalar va adabiyotlar:**

1. Абдураззоқ Самарқандий. Матлаъи саъдайн ва мажмаи баҳрайн. II жилд биринчи қисм, 1405-1429 йиллар воқеалари; II жилд иккинчи ва учинчи қисмлар, 1429-1470 йиллар воқеалари. Форс тилидан таржима ва изоҳлар муаллифи – Асомиддин Ўринбоев. Географик номлар изоҳли кўрсаткичи О.Бўриев томонидан тузилган. – Тошкент “O'ZBEKISTON”, 2008. I жилд-631 бет; II жилд- 831 бет. I жилд. Б.231.

2. Ахмедов Б.А.. Историко-географическая литература Средней Азии XVI – XVIII вв. Письменные памятники. – Ташкент “ФАН”, 1985. – 264 с.

3. Аҳмедов Бўрибой. Ўзбек улуси. – Т.: А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1992. – 152 б.

4. Муджмал-и Фасихи (Фасихов свод) / Пер., предисл., примеч. и указ. Д. Ю. Юсуповой. – Ташкент: Фан, 1980. – 346 с.

## MUNDARIJA / TABLE OF CONTENTS / СОДЕРЖАНИЕ


| | | |
|---|---|---|
| 1. | ART-PEDAGOGIKA TUSHUNCHASINING PEDAGOGIK TAVSIFI VA ZAMONAVIY TA'LIMDAGI AHAMIYATI<br>Komolova Iroda Xamidullayevna | 4 |
| 2. | SCIENTIFIC AND PRACTICAL RESEARCH ON 3D PRINTING TECHNOLOGIES: TECHNOLOGICAL AND BENEFICIAL ASSESSMENT<br>Karimov Shukhrat Gayratovich<br>Tashpulatov Javokhir Abdulla ogli<br>Daniyarov Berdax Talibaevich<br>Markarimov Sokhibjon Turdalievich | 12 |
| 3. | XX ASR 20-30-YILLARIDA O'ZBEKISTON SSRga TASHQI MUHOJIRLARNING KO'CHIRIB KELTIRILISHI VA UNING DEMOGRAFIK OQIBATLARI<br>Alimov Obidjon Sultanmurod o'g'li | 17 |
| 4. | IKKINCHI JAHON URUSHI DAVRIDA O'ZBEKISTONDA URUSH NOGIRONLARINI KASBIY REABILITATSIYA QILISH VA MEHNAT BILAN TA'MINLASH TAJRIBASI<br>Alimov Obidjon Sultanmurod o'g'li | 22 |
| 5. | IQTISODIY KO'RSATKICHLAR: MOHIYATI, TIZIMLI TASNIFI VA MAKROIQTISODIY BARQARORLIKNI TA'MINLASHDAGI ROLI<br>Bozorov Muhammad Obloqul o'g'li | 26 |
| 6. | JANUBIY XITOY DENGIZIDAGI HUDUDIY MUAMMOLARNING YECHISH ISTIQBOLLARI<br>Kazakbayev Hikmatilla Ismatullayevich | 30 |
| 7. | INSON HUQUQLARINI HIMOYA QILISHDA OMBUDSMAN INSTITUTINING O'RNI<br>Nabiyev Muhriddin Baxtiyor o'g'li | 35 |
| 8. | FUQAROLARNING QULAY ATROF-MUHITGA EGA BO'LISH HUQUQINING O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASIDA MUSTAHKAMLANISHI VA UNING AHAMIYATI<br>Nabiyev Muhriddin Baxtiyor o'g'li | 38 |
| 9. | THE IMPORTANCE OF EXTRACURRICULAR ACTIVITIES<br>Saparbayeva Charosxon Islam qizi<br>Kadirova Khurshida Bakhadirovna | 41 |
| 10. | IQTISODIYOTDA MATEMATIK MODELLASHTIRISH: NAZARIYA VA AMALIYOT<br>Muhiddinova Gulzoda Shukur qizi | 44 |
| 11. | NEFT VA GAZNI BURG'ULASH JARAYONIDA QO'LLANILADIGAN BURG'ULASH ERITMASINING AHAMIYATI<br>U. X. Asranova | 48 |
| 12. | CONTRASTIVE ANALYSIS, ERROR ANALYSIS AND INTERLANGUAGE IN SECOND LANGUAGE ACQUISITION<br>Axmedova Maftuna Alisher qizi<br>Kadirova Khurshida Bakhadirovna | 51 |
| 13. | INDIVIDUAL DIFFERENCES IN SECOND LANGUAGE LEARNING<br>Ataxanova Madina Azad qizi<br>Kadirova Khurshida Bakhadirovna | 55 |
| 14. | TEACHING STRESS: WORD STRESS<br>Kadirova Khurshida Bakhadirovna<br>Xamroyeva Mardonaxon Umidjon qizi | 59 |
| 15. | WAYS OF DEVELOPING STUDENTS' CRITICAL THINKING | 62 |

| | | |
|---|---|---|
| | Rajapova Zilola Baxramjon qizi<br>Kadirova Khurshida Bakhadirovna | |
| 16. | O'ZBEKISTONDA ELEKTRON TIJORAT SOHASIDA EKOLOGIK STRATEGIYALARNI AMALGA OSHIRISH HOLATI VA HUQUQIY ASOSLARI<br>D.K.Xakimdjanova<br>Xajiyeva Sevinch Mardonbek qizi | 65 |
| 17. | BERUNIY MEROSI ASOSIDA STEM-INTEGRATSIYALASHGAN METODIKANING KOMPONENTLAR BO'YICHA SAMARADORLIGI<br>Aliyeva Xurshida Shuxrat qizi | 70 |
| 18. | QISHLOQ XO'JALIGIDA AQILLI SUG'ORISH TIZIMINI TATBIQ ETISH<br>Xurramov Ro'ziboy Jo'ra o'g'li | 74 |
| 19. | QRIM MA'RIFATPARVARLIK HARAKATI TARIXINING O'RGANILISH BOSQICHLARI VA TARIXSHUNOSLIKDAGI TALQINI<br>Berdiyeva Muattar Ibodullayevna<br>Nazarova Zulayho Azimboy qizi | 78 |
| 20. | SHAXS BORLIG'I INQIROZI VA APATIYA FENOMENI: SABAB, OQIBAT VA KONSEPTUAL-FALSAFIY YECHIMLAR<br>Mannobova Munisa O'ktamjon qizi<br>Ikramova I.R. | 83 |
| 21. | EKOSHAHARLAR BARPO ETISH — BARQAROR URBANIZATSIYA VA MINTAQAVIY IQTISODIYOTNI YASHILLASHTIRISHNING BOSH POYDEVORIDIR<br>Xusainov Oybek Djabbarovich | 87 |
| 22. | O'ZBEKISTONDA QONUN CHOLG'USI IJROCHILIGI MASALALARI<br>Temurbek Jumanazarov | 91 |
| 23. | INSON KAPITALIGA INVESTITSIYA YO'NALISHLARI VA ULARNI BAHOLASH MEZONLARI<br>Boboyeva Gulchiroy Murotovna | 97 |
| 24. | TIBBIY OTMLARDA PEDIATRIYA TA'LIMINING INNOVATSION PEDAGOGIK YONDASHUVLARI<br>Normatov Jasur Javli o'g'li | 101 |
| 25. | ГЕЙМИФИКАЦИЯ КАК СРЕДСТВО ПОВЫШЕНИЯ УЧЕБНОЙ МОТИВАЦИИ МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ<br>Наркабилова Гулноза Пулатовна | 108 |
| 26. | ФОРМИРОВАНИЕ УНИВЕРСАЛЬНЫХ УЧЕБНЫХ ДЕЙСТВИЙ МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ В ПРОЦЕССЕ ИГРОВОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ<br>Наркабилова Гулноза Пулатовна | 114 |
| 27. | UD CHOLG'USINING TARIXIY TARAQQIYOTI VA AN'ANAVIY IJROCHILIKDAGI O'RNI<br>Iskandarov Shukurullo Ne'matullo o'g'li | 119 |
| 28. | LISTENING IN THE WORLD AND IN LANGUAGE LEARNING<br>Iskandarov Farrukh Yodgor o'g'li<br>Karimbayev Islom Oybek o'g'li | 122 |
| 29. | QISHLOQ XO'JALIGIDA KO'CHMA SUG'ORISH TIZIMINI QO'LLASH ISTIQBOLLARI<br>Xurramov Ro'ziboy Jo'ra o'g'li | 126 |
| 30. | ELEMENTAR MATEMATIK MASALALARNI YECHISHDA DINAMIK SISTEMALARNI QO'LLASH<br>Mamatov Jurabek Saydullayevich<br>Jo'raqulova Rayhona Muzaffarovna | 130 |
| 31. | TIBBIY USKUNALARNING BUZILISH XAVFINI BAHOLASH ASOSIDA PROFILAKTIK XIZMAT KO'RSATISH INTERVALLARINI | 135 |

| | | |
|---|---|---|
| | OPTIMALLASHTIRISH<br>O.E. Jiyanbayev | |
| 32. | BIOLOGICALLY ACTIVE SUBSTANCES AND THEIR ROLE IN RATIONAL NUTRITION<br>D.B.Aknazarova<br>S.O.Sattorova | 140 |
| 33. | TEXNOLOGIYA FANINI O'QITISHDAGI MAVJUD MUAMMOLAR<br>Masharipova Xadicha Javlon qizi | 147 |
| 34. | ЭФФЕКТИВНОСТЬ КОЛЛЕКТОРА ДЛЯ ОТОПЛЕНИЯ ЗДАНИЯ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ЭНЕРГЕТИЧЕСКИХ ОТХОДНЫХ БАНОК<br>Пирназаров Илхом Исламович<br>Иброхимова Замира Исмат кизи | 151 |
| 35. | KORXONADA SIYOSIY RISKLARNI BAHOLASH VA BOSHQARISH MODELLARI<br>Qo'ldosheva Dilnavoz Baxodir qizi | 154 |
| 36. | BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA IRODAVIY SIFATLARNI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK JIHATLARI<br>Abdimova Iroda Botirboyevna<br>Sultonova Laylo Usmonali qizi | 157 |
| 37. | XIII-XVI ASR BOSHLARIDA XORAZMDA MADANIY JARAYONLAR VA ISLOM DINI TARAQQIYOTI<br>Ibragimova Gulzoda Farxadovna | 161 |
| 38. | XV– XVI ASR BOSHLARIDA XORAZMDA KECHGAN SIYOSIY JARAYONLAR<br>Ibragimova Gulzoda Farxadovna | 168 |
| 39. | MEKTEPKE SHEKEMGI BILIMLENDIRIW MÁKEMELERINDE HÁREKETLI OYINLAR ÓTKERIW USÍLLARÍ<br>Nurullaev Alpamıs Jumabaevich<br>Áwezimbetov Tilewbergen Allambergenovich | 174 |
| 40. | AHOLI SALOMATLIGINI MUHOFAZA QILISHDA TIBBIY VA EKOLOGIK OMILLARNING O'RNI<br>Ermetova Z.T.<br>Atadjanova R.R. | 178 |
| 41. | ДИЛОРОМ САЙДАМИНОВА: ДИАЛОГ НАЦИОНАЛЬНЫХ ТРАДИЦИЙ И СОВРЕМЕННОСТИ<br>Касимова Умидахон Шерзодовна | 183 |
| 42. | YOSHLARDA O'Z-O'ZIGA BO'LGAN ISHONCHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI<br>Mirzaxmatova Sayyora Saydaxmatovna | 187 |
| 43. | YOSHLARDAGI IJODKORLIKNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI<br>Mirzaxmatova Sayyora Saydaxmatovna | 190 |
| 44. | O'ZBEK AYOLLAR SHE'RIYATIDA MUHABBAT VA NAFRAT ANTITEZASI: SANOBAR MEHMON IJODI MISOLIDA<br>Erkaboyeva Mohidil Madaminjon qizi | 193 |
| 45. | TALABA-QIZLARNI SOG'LOM TURMUSH TARZIGA QIZIQTIRISH MEXANIZMLARI<br>Usmanova Shohzoda Mamarasul qizi<br>Uktamov Muhammadamin Ramzi o'g'li | 198 |
| 46. | O'ZBEKISTONDA 5 YOSHGACHA BO'LGAN BOLALAR O'RTASIDA KAM OVQATLANISHNING GIGIYENIK ASOSLARI VA UNING OLDINI OLISH<br>Karimova Sayyora Bahodirovna<br>Matyoqubov Doston Bazarboyevich | 202 |

| | | |
|---|---|---|
| 47. | ORTIQCHA VAZN VA SEMIZLIK KASALLIGINING OLDINI OLISH CHORALARI<br>Raximova Xurshida Salayevna<br>Matyoqubov Doston Bazarbayevich | 205 |
| 48. | MAKTAB O`QUVCHILARI O`RTASIDA UMURTQA POG`ONASI QIYSHAYISHINING KELIB CHIQISH SABABLARI VA OLDINI OLISH CHORALARI<br>Jumaniyozov Alisher Abdusharipovich<br>Kurbaniyazova Oltinoy Maxmud qizi | 208 |
| 49. | BOLALAR KIYIMLARIGA QO`YILADIGAN GIGIYENIK TALABLAR<br>Raximova Xurshida Salayevna | 211 |
| 50. | MAKTAB YOSHIDAGI BOLALARDA O`QUV XONALARINING YORITILGANLIK DARAJASI VA UNING GIGIYENIK AHAMIYATI<br>Jumaniyozov Alisher Abdusharipovich<br>Kurbaniyazova Oltinoy Maxmud qizi | 215 |
| 51. | BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING KASBIY SHAKLLANGANLIK DARAJASINI BAHOLASHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI<br>Jurayeva Nigora Abdusalom qizi | 218 |
| 52. | BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING REFLEKSIV KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA PEDAGOGIK DIAGNOSTIKANING AHAMIYATI<br>Jurayeva Nigora Abdusalom qizi | 222 |
| 53. | FURTHER INVESTIGATION INTO ENGLISH PRAGMALINGUISTIC TERMS<br>Sabirova Bernara Umarjanovna | 226 |
| 54. | ENGLISH LANGUAGE TEACHING IN CHINA: PRINCIPLES AND STRATEGIES<br>Rasulova Nadira Bakhadirovna | 234 |
| 55. | BO'LAJAK PEDAGOGLARDA RAQAMLI IJODKORLIKNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK JIHATLARI<br>Berdiyorova Nilufar Berdiyor qizi | 238 |
| 56. | SCAPHOLEBERIS MUCRONATA (MÜLLER, 1776) TURINING KO'PAYISH VA RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI<br>Madumarova Saodatxon Orifovna | 246 |
| 57. | ONLAYN TA'LIMDA IQTISODIY TERMINLARNI O'ZLASHTIRISH SAMARADORLIGI<br>Barno Djamalutdinova Ramizitdinovna | 249 |
| 58. | FORMATIV BAHOLASH TOPSHIRIQLARI ORQALI O'QUVCHILAR FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISH (IXTISOSLASHTIRILGAN MAKTABLAR MISOLIDA)<br>Sarvara Islamova | 153 |

**Eslatma! Konferensiya materiallari to‘plamiga kiritilgan maqolalardagi raqamlar, ma’lumotlar haqqoniyligiga va keltirilgan iqtiboslar to‘g‘riligiga mualliflar shaxsan javobgardirlar.**

**Mas’ul muharrir**

I.I.Abdumannonov

**Nashrga tayyorlovchi**

R.I.Abdullayev

*“Ilm-fan muammolari tadqiqotchilar talqinida” mavzusidagi respublika ilmiy konferensiyasi materiallari to‘plami, 10-iyun, 2026-yil. – Farg‘ona: talqinvatadqiqotla.uz – 264 bet.*